ISNN:2181-1296

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 4/2 (158)
2026

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2026-yil, 4-son (158/2) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Huquqshunoslik, Siyosiy fanlar, O‘qitish metodikasi, Filologiya, Pedagogika, Sotsiologiya, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R.I.XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI: **H.A.XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M.Q.Muhiddinov	-f.f.d., professor (SamDU)	B.E.Ergashev	-t.f.d., professor (SamDU)
Stefano Benazzi	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	S.A.Karimov	-f. f. d., professor (SamDU)
Simone Mantelini	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	M.X.Lutfullayev	-p.f.d.. professor (SamDU)
Sh.Y.Ziyodov	-i.f.d. (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)	A.R.Samadov	-fal. f.d., professor (SamDU)
N.U.Arabov	-i.f.d., professor (SamDU)	Sh.A.Hasanov	-f.f.d., professor (SamDU)
Hiroaki Huziie	-Osaka universiteti professori (Yaponiya)	B.S.G‘oyibov	-t.f.d., professor (SamDU)
B.O.To‘rayev	-fal. f.d., professor (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-	G.B.Normurodova	-t.f.d., professor (SamDU)
A.B.Pardayev	-f. f.d., professor (SamDU)	F.Sh.Rashidova	-t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.Yusupova	-f.f.n., dotsent (SamDU)	D.Q.Usmonova	-i.f.n., dotsent (SamDU)
O.Qodirov	-p.f.n., dotsent (SamDU)	N.A.Isakova	-f.f.n., dotsent (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun- **5584**

M U N D A R I J A
C O N T E N T S

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
1.	Buyuk ipak yo‘li savdogarlari uylari: Samarqand va Qashg‘ar turar joy me’morchiligining qiyosiy tahlili **Rashidova F.Sh., Nozimova S.K.**	Merchant houses of the silk road: comparative study of Samarkand and Kashgar domestic architecture **Rashidova F.Sh., Nozimova S.K.**	**5-10**
2.	Методические приёмы, способствующие арабоязычным студентам усвоить падежную систему русского языка **Атавуллаева С.Ж, Кодирова З.А.**	Methodological techniques to help Arabic-speaking students master the case system of the Russian language **Atavullaeva S.J., Kodirova Z.A.**	**11-15**
3.	Nasriy matnlarda “ayol” konseptosferasining namoyon bo‘lishi **Shukurova M.X.**	Manifestation of the "woman" concept sphere in prose texts **Shukurova M.Kh.**	**16-20**
4.	Samarqand tarixining yevropa tarixshunosligi va manbashunosligida talqin etilishi: XVI-XX asr manbalarining ilmiy tahlili **Imomov U.I.**	Interpretation of the history of Samarkand in European historiography and source studies: scientific analysis of sources from the 16th to 20th centuries **Imomov U.I.**	**21-28**
5.	Boshqaruvda jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda konstruktivlik tushunchasi va uning asosiy tamoyillari **Sulaymanova D.K.**	The concept of constructiveness and its fundamental principles in developing teamwork skills in management **Sulaymanova D.K.**	**29-32**
6.	Rossiya imperiyasining ichki guberniyalari va turkiston general-gubernatorligi notarial idoralari faoliyatining farqli jihatlari **Xolikulov Sh.B.**	Different aspects of the activities of the notarial offices of the internal governorates of the Russian Empire and the Governor-General of Turkestan **Kholikulov Sh.B.**	**33-38**
7.	Социальная справедливость как политический механизм обеспечения эффективности социально-экономической политики **Бабаева А.Б.**	Social justice as a political mechanism for ensuring the effectiveness of socio-economic policy **Babaeva A.B.**	**39-44**
8.	международный терроризм как угроза политической стабильности и устойчивому развитию государств **Марифли А.**	International Terrorism as a Threat to Political Stability and Sustainable Development of States **Marifli A.**	**45-51**
9.	O‘zbekiston yoshlar siyosati tajribasining ijtimoiy-falsafiy natijalari va istiqbollari **Abdiyev G‘. E.**	Socio-philosophical results and prospects of the youth policy experience of Uzbekistan **Abdiev G‘. E.**	**52-56**
10.	Zamonaviy pedagogikada shaxs va ijtimoiv ta’lim masalalari **Mustafayev Sh.N.**	Personal and social education issues in modern pedagogy **Mustafaev Sh.N.**	**57-62**
11.	Yangi O‘zbekistonda yoshlar qadriyatlarini shakllantirishda oila va mahalla institutlarining roli **Umarova N.**	The role of family and mahalla institutions in shaping youth values in new Uzbekistan **Umarova N.**	**63-68**
12.	Ekstremal xizmat sharoitida psixologlar kompetentligini rivojlantirishda kognitiv mexanizmlarning o‘rni **Turg‘unov N.Sh.**	The role of cognitive mechanisms in developing psychologists' competence in extreme service conditions **Turgunov N.Sh.**	**69-75**

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
13.	Ma’naviy-axloqiy identitetning pedagogik jarayondagi o‘rni, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unligi **Nazarova Z.T.**	The role of spiritual and moral identity in the pedagogical process and its alignment with national and universal values **Nazarova Z.T.**	**76-79**
14.	Saʿdiy Sheroziy asarlarining Angliyada ilmiy o‘rganilishi va tarjima xususiyatlari **Abdusalomova A.H.**	The scholarly study and translation features of Saadi Shirazi’s works in England **Abdusalomova A.H.**	**80-85**
15.	Maqollarning ijtimoiy rollarni ifodalashdagi pragmatik va lingvoasoslari (ingliz va o‘zbek tillari asosida) **Gaybnazarova D.T.**	Pragmatic and linguacultural aspects of the expression of social roles in proverbs (based on english and uzbek languages) **Gaybnazarova D.T.**	**86-91**
16.	Qoraqalpog‘iston madaniyati tarixshunosligi xorijiy tadqiqotlar nigohida **Aytmuratov J.**	Historiography of the culture of karakalpakstan in foreign studies **Aytmuratov J.**	**92-96**
17.	Postmodernizm davrida individualizmning kuchayishi natijasidagi axloqiy munosabatlar deformatsiyasining oqibatlari **Toshpulatov O.N.**	Consequences of the deformation of moral relations as a result of the growth of individualism in the postmodern era **Toshpulatov O.N.**	**97-102**
18.	Komillik metodologiyasi: So‘fi Olloyor ta’limoti — jamiyatning ma’naviy-axloqiy tizimini shakllantiruvchi ilmiy poydevor **Nosirov J.**	Methodology of perfection: the teachings of Sofi Allayar - the scientific foundation that forms the spiritual and moral system of society **Nosirov J.**	**103-108**
19.	Turkiston o‘lkasida mahalliy tadbirkorlar qatlamining shakllanishi **Tayronov Y.R.**	Formation of a local entrepreneurship layer in the Turkistan region **Tayronov Y.R.**	**109-115**
20.	Yoshlar ijtimoiy-demografik qatlam sifatida: milliy va xorijiy tajriba **Yunusov A.**	Youth as a socio-demographic stratum: national and international experience **Yunusov A.**	**116-121**
21.	Zamonaviy germaniya ilmiy-madaniy rivojlanishining asosiy ko‘rsatgichlari **Umarov S.Y.**	Key indicators of contemporary Germany’s scientific and cultural development **Umarov S.Y.**	**122-130**
22.	Ma’naviy tarbiyada yangi strategik texnologiyalarni shakllantirish usullari **Husanov E.**	Methods for forming new strategic technologies in spiritual education **Husanov E.**	**131-135**
23.	Tillararo tarjimaning tarkibiy qismi sifatida pragmatizm: o‘zbek va ingliz tillarining qiyosiy tadqiqiga metodologik yondashuv **Kurbonalieva M., Kuldoshov U.**	Pragmatism as a component of cross-lingual translation. methodological approach to the comparative study of uzbek and english **Kurbonalieva M., Kuldoshov U.**	**136-141**
24.	Ta’lim nazariyalarining integrativ tatbiqi asosida darsni loyihalash mexanizmi **Shodiyorova U.Sh.**	Mechanism for designing a lesson based on the integrative application of educational theories **Shodiyorova U.Sh.**	**142-149**

UDK: 316.356.2:316.346.32-053.6 https://doi.org/10.59251/2181-3973.2025.v1.138.1.4081

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA OILA VA MAHALLA INSTITUTLARINING ROLI

N.Umarova
O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti, Toshkent, O‘zbekiston.

N.Umarova O’zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o’rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti, Toshkent, O‘zbekiston.

Kelib tushgan: 15.07.2026
Ko‘rib chiqildi: 30.07.2026
Qabul qilindi: 15.08.2026
Nashr qilindi: 30.09.2026

Nashriyotchi: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

Annotatsiya. Maqolada Yangi O‘zbekistonda yoshlar qadriyatlarini shakllantirishda oila va mahalla institutlarining o‘rni sotsiologik jihatdan tahlil qilinadi. Globallashuv, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy munosabatlardagi o‘zgarishlarning yoshlar dunyoqarashi hamda qadriyatlar tizimiga ta’siri yoritiladi. Oila yoshlarning dastlabki ijtimoiylashuv muhiti, mahalla esa ularning jamoaviy hayotga moslashuvi va ijtimoiy faolligini rivojlantiruvchi institut sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda oila va mahallaning tarbiyaviy, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hamda jamoaviy funksiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur institutlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishdagi imkoniyatlari ochib beriladi. Tadqiqot ilmiy adabiyotlar, nazariy yondashuvlar va mavjud sotsiologik tadqiqotlar tahliliga asoslangan. Oila va mahalla hamkorligining yoshlarning ijtimoiy mas’uliyati, fuqarolik pozitsiyasi va milliy o‘zligini anglashiga ta’siri asoslanadi. Yoshlar bilan ishlashda zamonaviy va samarali ijtimoiy mexanizmlardan foydalanish zarurligi ko‘rsatiladi. Tadqiqot natijasida oila va mahalla yoshlar qadriyatlarini shakllantirishda o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi ijtimoiy institutlar ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, yoshlar, qadriyatlar, oila, mahalla, ijtimoiylashuv, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, fuqarolik faolligi.

Роль институтов семьи и махалли в формировании ценностей молодежи в Новом Узбекистане

Аннотация. В статье с социологической точки зрения анализируется роль институтов семьи и махалли в формировании ценностей молодежи в Новом Узбекистане. Рассматривается влияние глобализации, цифровых технологий и трансформации общественных отношений на мировоззрение и систему ценностей молодого поколения. Семья рассматривается как первичная среда социализации молодежи, а махалля — как социальный институт, способствующий адаптации личности к коллективной жизни и развитию социальной активности. Анализируются воспитательные, социальные, духовно-просветительские и общественные функции семьи и махалли. Раскрываются возможности данных институтов в формировании национальных и общечеловеческих ценностей. Исследование основано на анализе научной литературы, теоретических подходов и существующих социологических исследований. Обосновывается влияние взаимодействия семьи и махалли на развитие социальной ответственности, гражданской позиции и национального самосознания молодежи. Подчеркивается необходимость применения современных социальных механизмов работы с молодежью. В результате семья и махалля рассматриваются как взаимосвязанные и

взаимодополняющие социальные институты формирования ценностных ориентаций молодежи.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, молодежь, ценности, семья, махалля, социализация, духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, общечеловеческие ценности, гражданская активность.

The role of family and mahalla institutions in shaping youth values in new Uzbekistan

Abstract. The article provides a sociological analysis of the role of family and mahalla institutions in shaping youth values in New Uzbekistan. It examines the influence of globalization, digital technologies, and the transformation of social relations on the worldview and value system of the younger generation. The family is considered as the primary environment of youth socialization, while the mahalla is viewed as a social institution that facilitates adaptation to community life and the development of social activity. The study analyzes the educational, social, spiritual-educational, and community functions of family and mahalla institutions. Particular attention is paid to their potential in promoting national and universal human values among young people. The research is based on an analysis of scientific literature, theoretical approaches, and existing sociological studies. The role of cooperation between family and mahalla in developing young people's social responsibility, civic position, and national identity is substantiated. The study emphasizes the need to introduce modern and effective social mechanisms for working with youth. The findings demonstrate that family and mahalla function as interconnected and complementary social institutions in the formation of youth values.

Keywords: New Uzbekistan, youth, values, family, mahalla, socialization, spiritual and moral education, national values, universal human values, civic engagement.

Kirish. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jamiyatning barcha sohalari qatori yoshlarning ijtimoiy mavqei, hayotiy strategiyalari va qadriyat yo‘nalishlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Yoshlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotini ta’minlovchi muhim ijtimoiy-demografik guruh sifatida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi.

Yoshlarning qadriyatlari ularning ta’lim olish, kasb tanlash, mehnat qilish, oila qurish, fuqarolik hayotida ishtirok etish va kelajakni rejalashtirish kabi jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli yoshlar qadriyatlarining shakllanish mexanizmlarini o‘rganish nafaqat falsafiy va sotsiologik, balki ijtimoiy boshqaruv nuqtai nazaridan ham muhimdir.

Bugungi kunda globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari yoshlarning dunyoqarashiga yangi ta’sir kanallarini olib kirmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt yoshlarning axborot olish, muloqot qilish, ta’lim olish va kasbiy rivojlanish usullarini o‘zgartirmoqda. Bunday sharoitda an’anaviy ijtimoiy institutlarning, xususan, oila va mahallaning tarbiyaviy salohiyatini qayta baholash zarur. 2021-yilda «Ijtimoiy fikr» markazi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda 14-35 yoshdagi yoshlarning hayotiy pozitsiyalari va qadriyat ustuvorliklari o‘rganilgan. Tadqiqot O‘zbekistonning barcha hududlarini, shahar va qishloq yoshlarini, turli ijtimoiy guruhlarni qamrab olgan [1]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yoshlarning 91,4 foizi o‘z hayoti va oilasi hayotidan mamnunligini, 86,9 foizi esa kelajakka ishonch va optimizm bilan qarashini bildirgan [1].

2026-yilgi tadqiqotda esa oilaning yoshlarning hayotiy qarorlariga ta’siri yanada aniq namoyon bo‘ladi: respondentlarning 79,3 foizi muhim qarorlarni qabul qilishda ota-onalar ta’sirini

katta deb baholagan [2]. Shu nuqtayi nazardan, oila va mahalla institutlarining yoshlar qadriyatlarini shakllantirishdagi o‘rnini birgalikda o‘rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Oila va mahalla institutlarining jamiyatdagi o‘rni O‘zbekistonning ijtimoiy fanlarida turli yo‘nalishlarda o‘rganib kelinmoqda. Mazkur tadqiqot doirasida adabiyotlar shartli ravishda uch yo‘nalishga ajratildi: mahalla institutining ijtimoiy funksiyalari, oilaning tarbiyaviy salohiyati hamda yoshlarning zamonaviy qadriyatlari. Mahalla institutiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda uning fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish, ijtimoiy barqarorlik va jamoaviy hamkorlikni ta’minlashdagi roli qayd etiladi [3]. Mahalla davlat va jamiyat o‘rtasidagi aloqaning muhim bo‘g‘ini sifatida aholining kundalik hayoti, o‘zaro munosabatlari va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirishda ishtirok etadi.

Mahallaning oilani mustahkamlashdagi o‘rniga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ushbu institutning oilaviy muammolarni aniqlash, ijtimoiy ko‘mak ko‘rsatish, ma’naviy muhitni mustahkamlash va oilaviy qadriyatlarni targ‘ib qilishdagi imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan [4]. Mahalla institutining zamonaviy transformatsiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda esa mahallaning faqatgina nazorat va tarbiya funksiyalari bilan chegaralanib qolmasligi, balki aholining ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshiruvchi va davlat organlari bilan fuqarolar o‘rtasidagi muloqotni ta’minlovchi institut sifatidagi rolini kuchaytirish zarurligi asoslanadi [5]. Mahalladagi jamoatchilik nazoratining rivojlanishi ham uning ijtimoiy funksiyalarining kengayib borayotganidan dalolat beradi [6]. Shu bilan birga, volontyorlik va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirishga oid tadqiqotlarda mahalla fuqarolik jamiyatining boshlang‘ich va bevosita ijtimoiy muhiti sifatida baholanadi [7].

Mahalla institutining qadriyatlarni uzatishdagi madaniy funksiyasi urf-odat va marosimlar misolida ham namoyon bo‘ladi. To‘y, Navro‘z, oilaviy marosimlar va boshqa jamoaviy amaliyotlar avlodlar o‘rtasidagi madaniy aloqani mustahkamlashga xizmat qiladi [8]. Oila institutiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda esa oilaning shaxsning dastlabki ijtimoiylashuv muhiti ekanligi ta’kidlanadi. Oilani mustahkamlash masalalariga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy materiallarda oilaviy munosabatlar, ota-onalik mas’uliyati va oiladagi ma’naviy-axloqiy muhit masalalari keng yoritilgan [9].

Zamonaviy oilada milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda oilaning yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularda mas’uliyat va o‘zaro hurmatni rivojlantirishdagi ahamiyati qayd etilgan [10]. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-huquqiy asoslari bo‘yicha tadqiqotlarda «Oila dorilfununi» va «Yosh oila quruvchilar maktabi» kabi shakllarning oilaviy munosabatlarni mustahkamlashdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan [11].

Milliy oilaviy qadriyatlar va yoshlar siyosatiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda yoshlarni milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratiladi [12]. Oilaning yoshlarda ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishdagi roliga bag‘ishlangan tadqiqotlarda esa oila shaxsning ijtimoiy mas’uliyat, axloqiy me’yorlar va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning asosiy institutlaridan biri sifatida baholanadi [13].

Shuningdek, «Ijtimoiy fikr» markazining tadqiqotlari yoshlarning qadriyatlari va hayotiy strategiyalarini empirik o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi [1; 2]. 2021-yilgi tadqiqot yoshlarning oilaviy qadriyatlari bilan bir qatorda ta’lim, kasbiy rivojlanish va iqtisodiy farovonlikka intilishini ko‘rsatgan [1]. 2026-yilgi tadqiqot esa oilani, ta’limni, mehnatni va iqtisodiy barqarorlikni yoshlarning asosiy qadriyatlari qatorida qayd etadi [2].

Materiallar va metodlar. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, ikkilamchi sotsiologik ma’lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishda oila, mahalla, yoshlar, qadriyat, ijtimoiylashuv va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalariga bag‘ishlangan 2020–2026-yillardagi milliy ilmiy manbalar tanlab olindi [3–13].

Empirik baza sifatida «Ijtimoiy fikr» Respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazining 2021 va 2026-yillardagi tadqiqotlari olindi [1; 2]. 2021-yilgi tadqiqotda 14–35 yoshdagi yoshlar mamlakatning barcha hududlaridan qamrab olingan [1]. 2026-yilgi tadqiqot yoshlarning qadriyatlari, oilaviy munosabatlari, ta’limi, mehnat faoliyati, tadbirkorlikka munosabati, ijtimoiy-iqtisodiy holati va raqamli texnologiyalarga munosabatini qamrab olgan [2].

Tadqiqotning muhim metodologik cheklovi shundan iboratki, mavjud umummilliy sotsiologik tadqiqotlarda mahalla institutining yoshlar qadriyatlariga ta’siri alohida mustaqil ko‘rsatkich sifatida to‘liq o‘lchanmagan. Shu sababli mahallaning ta’siri ilmiy adabiyotlar va mavjud sotsiologik ma’lumotlar bilan birgalikda tahlil qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari oilaning yoshlar qadriyatlarini shakllantirishdagi markaziy o‘rnini ko‘rsatadi. 2026-yilgi «Ijtimoiy fikr» tadqiqotiga ko‘ra, respondentlarning 75,5 foizi hayotdagi eng muhim qadriyatlardan biri sifatida do‘stona va mustahkam oilaga ega bo‘lishni ko‘rsatgan [2]. Bundan tashqari, 79,3 foiz respondent hayotiy muhim qarorlarni qabul qilishda ota-onalar ta’siri katta ekanligini bildirgan [2]. Mazkur ko‘rsatkichlar oilaning yoshlar uchun faqatgina hissiy qo‘llab-quvvatlash manbai emas, balki hayotiy qarorlar va xulq-atvorni yo‘naltiruvchi ijtimoiy institut ekanligini ko‘rsatadi.

2021-yilgi tadqiqotda ham oilaviy qadriyatlarning muhimligi qayd etilgan. Respondentlarning 53,3 foizi oilaviy-nikoh munosabatlari, ota-onalik va oilaviy maqomni o‘z ijtimoiy-iqtisodiy faolligini rag‘batlantiruvchi qadriyat sifatida baholagan [1]. Shunday qilib, 2021 va 2026-yillardagi ma’lumotlar oila qadriyatining yoshlar hayotidagi barqarorligini ko‘rsatadi.

Jadval 1

Yoshlarning oila va hayotiy qadriyatlariga oid ayrim ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkich	**Yil**	**Ulushi**
Oilaviy-nikoh munosabatlari va ota-onalikni qadriyat deb bilganlar	2021	53,3%
Hayotidan va oilasi hayotidan mamnunlar	2021	91,4%
Kelajakka ishonch va optimizm bilan qaraganlar	2021	86,9%
Mustahkam oilani muhim hayotiy qadriyat deb bilganlar	2026	75,5%
Muhim qarorlarda ota-onalar ta’sirini yuqori baholaganlar	2026	79,3%

Manba: [1; 2].

Oila tomonidan shakllantiriladigan qadriyatlar qatoriga halollik, mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik, mas’uliyat, o‘zaro yordam va oilaviy burch kabi qadriyatlarni kiritish mumkin.

Demak, oila shaxsning birlamchi qadriyatlar instituti sifatida namoyon bo‘ladi.

Mahalla O‘zbekiston jamiyatining tarixiy va institutsional xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan ijtimoiy tuzilma hisoblanadi. Mahalla yoshlar bilan ishlashda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, tarbiyaviy ta’sir, jamoatchilik nazorati, fuqarolik faolligi va ijtimoiy muammolarni aniqlash kabi funksiyalarni bajaradi [3–8]. So‘nggi yillarda mahalla tizimida yoshlar bilan manzilli ishlash mexanizmlari kengayib bormoqda. Jumladan, «Yoshlar daftari» va «mahallabay» ishlash tizimlari yoshlarning muammolarini joyida aniqlash va ularni hal qilishga qaratilgan [14]. 2026-yilgi ma’lumotlarda davlat va mahalla darajasidagi yoshlar bilan ishlashning amaliy ahamiyati ham namoyon bo‘ladi. Xususan, Prezidentning yoshlar bilan ochiq muloqotida har payshanba kuni rahbarlarning mahallalar, maktablar va texnikumlarga borib, yoshlarning muammolarini eshitishi belgilangan [15].

Mahallaning yoshlar qadriyatlarini shakllantirishdagi funksiyalarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin: ijtimoiylashuv funksiyasi; ma’naviy-axloqiy tarbiya funksiyasi; ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash funksiyasi; jamoatchilik nazorati funksiyasi; fuqarolik faolligini rivojlantirish funksiyasi; avlodlararo qadriyatlar almashinuvini ta’minlash funksiyasi. Shu bilan birga, zamonaviy mahalla yoshlarning iqtisodiy va kasbiy faolligini qo‘llab-quvvatlovchi institutga ham aylanmoqda.

2026-yilgi tadqiqot yoshlarning qadriyatlar tizimi faqat an’anaviy oilaviy qadriyatlar bilan chegaralanib qolmasligini ko‘rsatadi. Yoshlar uchun oliy ta’lim, kasbiy tayyorgarlik, ish bilan ta’minlanish, munosib daromad va tadbirkorlik muhim hayotiy maqsadlar sifatida namoyon bo‘lmoqda [2]. Tadqiqotda respondentlarning 63 foizi kelgusidagi islohotlarda ta’lim va kasbiy tayyorgarlikni, 52,8 foizi ish bilan ta’minlashni, 42 foizi esa tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashni ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rsatgan [2]. Tadbirkorlikka munosabat ham ijobiy: respondentlarning 66 foizi o‘z biznesini ochishni rejalashtirayotganini bildirgan [2]. Bu holat yoshlar qadriyatlar tizimida an’anaviy va zamonaviy qadriyatlarning uyg‘unlashayotganini ko‘rsatadi. Ya’ni oila va milliy qadriyatlar o‘z ahamiyatini saqlab qolgan holda, ta’lim, kasbiy o‘sish, iqtisodiy mustaqillik va shaxsiy muvaffaqiyatga intilish ham kuchaymoqda.

Yoshlarning qadriyatlarini shakllantirish jarayonida raqamli muhitning roli tobora ortib bormoqda. 2026-yilgi tadqiqotga ko‘ra, yoshlarning axborot olish va ijtimoiy hayotida internet va raqamli texnologiyalar muhim o‘rin tutmoqda [2]. Tadqiqotda sun’iy intellekt va yangi texnologiyalarga munosabat ham o‘rganilgan. Jumladan, 66,2 foiz respondent sun’iy intellektning joriy etilishini ijobiy baholagan [2]. Biroq raqamli texnologiyalarning rivojlanishi oila va mahalla oldiga yangi vazifalarni ham qo‘yadi. Yoshlarning axborot xavfsizligi, tanqidiy fikrlashi, raqamli savodxonligi va internetdagi axborotni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish shular jumlasidandir. Shuning uchun zamonaviy sharoitda oila va mahallaning tarbiyaviy faoliyati faqat an’anaviy shakllar bilan cheklanmasligi kerak.

Tadqiqot natijalari mavjud ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan nazariy qarashlarni umumiy jihatdan tasdiqlaydi. Birinchidan, oila yoshlarning qadriyatlarini shakllantirishda markaziy institut bo‘lib qolmoqda. 75,5 foizlik ko‘rsatkich oilaviy qadriyatlarning yuqori darajadagi barqarorligini ko‘rsatadi [2]. Ota-onalarning 79,3 foiz holatda muhim qarorlarni qabul qilishga ta’sir ko‘rsatishi esa oilaning normativ va yo‘naltiruvchi funksiyasini tasdiqlaydi [2]. Ikkinchidan, yoshlarning qadriyatlar tizimi zamonaviylashmoqda. Oilaviy qadriyatlar bilan bir qatorda ta’lim, kasbiy o‘sish, tadbirkorlik va iqtisodiy mustaqillikka intilish kuchaymoqda. Bu jarayon an’anaviy qadriyatlarning yo‘qolishini emas, balki ularning yangi ijtimoiy sharoitda qayta talqin qilinayotganini ko‘rsatadi. Uchinchidan, mahallaning funksiyalari ham o‘zgarib bormoqda. Ilgari mahalla ko‘proq jamoaviy nazorat va ma’naviy tarbiya instituti sifatida talqin qilingan bo‘lsa, bugungi kunda uning yoshlar bandligi, tadbirkorligi, ijtimoiy himoyasi va fuqarolik faolligini rivojlantirishdagi vazifalari kengaymoqda [5–8]. Shu nuqtayi nazardan, oila va mahallani qarama-qarshi yoki mustaqil institutlar sifatida emas, balki o‘zaro to‘ldiruvchi ijtimoiylashuv mexanizmlari sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq.

Oila — qadriyatni shakllantiradi. Mahalla — qadriyatni ijtimoiy muhitda mustahkamlaydi. Ta’lim muassasasi — qadriyatni bilim va kompetensiya bilan bog‘laydi. Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari esa — mazkur qadriyatlarning ijtimoiy hayotda amalga oshishi uchun shart-sharoit yaratadi.

Shu asosda yoshlar qadriyatlarini shakllantirishning quyidagi institutsional modelini taklif etish mumkin: Oila → Mahalla → Ta’lim → Fuqarolik jamiyati → Yoshlarning ijtimoiy faolligi.

Mazkur model yoshlar tarbiyasini faqat bitta institut zimmasiga yuklash emas, balki institutsional hamkorlik asosida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Yoshlarning qadriyatlarini muntazam o‘rganish maqsadida respublika va hududlar kesimida sotsiologik monitoring tizimini rivojlantirish zarur. Mahalla darajasida yoshlarning qadriyatlari, ehtiyojlari va hayotiy strategiyalarini o‘rganishga qaratilgan alohida so‘rovnoma bloklarini joriy etish maqsadga muvofiq. Mahalla faollari va yoshlar bilan ishlovchi mutaxassislarning pedagogik, psixologik, kommunikativ va raqamli kompetensiyalarini muntazam oshirib borish lozim. Oila–mahalla–ta’lim muassasasi o‘rtasida muntazam muloqot mexanizmlarini rivojlantirish kerak. Qadriyatlarni targ‘ib qilishda an’anaviy targ‘ibot shakllari bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoqlar, videokontent, podkastlar va boshqa raqamli vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish zarur. Yoshlarning tadbirkorlik va kasbiy rivojlanish qadriyatlarini qo‘llab-quvvatlashda mahalla darajasidagi mavjud imkoniyatlarni kengaytirish maqsadga muvofiq. Kelgusida «Oila–mahalla hamkorligi indeksi»ni ishlab chiqish mumkin. Ushbu indeks oilaning tarbiyaviy salohiyati, mahalla faoliyati, yoshlarning ijtimoiy faolligi, ta’lim, bandlik va fuqarolik ishtiroki kabi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari Yangi O‘zbekistonda yoshlar qadriyatlarini shakllantirish jarayonida oila va mahalla institutlari alohida va bir-biridan ajratilgan holda emas, balki o‘zaro bog‘liq ijtimoiy mexanizm sifatida faoliyat yuritishini ko‘rsatdi. Oila yoshlarning birlamchi ijtimoiylashuv muhiti bo‘lib, unda shaxsning dastlabki axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlari shakllanadi. 2026-yilgi sotsiologik tadqiqotda 75,5 foiz yoshlarning mustahkam oilani muhim hayotiy qadriyat sifatida belgilagani va 79,3 foizining muhim qarorlarni qabul qilishda ota-onalar ta’sirini yuqori baholagani oilaning ushbu rolini yaqqol tasdiqlaydi [2].

Mahalla esa oilada shakllangan qadriyatlarning kengroq ijtimoiy muhitda mustahkamlanishini ta’minlaydi. U ijtimoiylashuv, jamoatchilik nazorati, ijtimoiy himoya, fuqarolik faolligi va avlodlararo tajriba almashinuvi kabi funksiyalarni bajaradi. Shu bilan birga, yoshlarning qadriyatlar tizimida zamonaviy yo‘nalishlar ham kuchaymoqda. Ta’lim, kasbiy o‘sish, tadbirkorlik, iqtisodiy mustaqillik va raqamli kompetensiyalar yoshlarning hayotiy strategiyalarida tobora muhim o‘rin egallamoqda [2].

Zamonaviy sharoitda oila va mahalla oldida faqat an’anaviy qadriyatlarni saqlash emas, balki ularni yoshlarning zamonaviy ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish vazifasi ham turibdi. Tadqiqot natijasida oila va mahallaning yoshlar qadriyatlarini shakllantirishdagi funksional taqsimotini quyidagicha ifodalash mumkin:

oila — qadriyatlarning birlamchi manbai;
mahalla — qadriyatlarning ijtimoiy muhitdagi mustahkamlovchisi;
ta’lim — qadriyatlarning intellektual va kasbiy mazmunini rivojlantiruvchi institut;
fuqarolik jamiyati — qadriyatlarning ijtimoiy amaliyotdagi namoyon bo‘lish muhiti.

Yangi O‘zbekistonda yoshlar qadriyatlarini shakllantirishda oila va mahalla institutlarining salohiyatidan samarali foydalanish jamiyatning ma’naviy barqarorligi, fuqarolik faolligi va yoshlarning ijtimoiy taraqqiyotdagi ishtirokini ta’minlashning muhim shartlaridan biridir.

Adabiyotlar

1. Ижтимоий фикр Республика жамоатчилик фикрини ўрганиш маркази. Молодёжь нового Узбекистана: жизненные позиции и ценностные приоритеты https://ijtimoiyfikr.uz/ru/issledovaniya/obschestvo/molodezh-novogo-uzbekistana-zhiznennye-pozitsii-i-tsennostnye-prioritety.htm.
2. Ижтимоий фикр Республика жамоатчилик фикрини ўрганиш маркази. Какие ценности выбирает молодежь Узбекистана? https://ijtimoiyfikr.uz/ru/issledovaniya/obschestvo/255677743377.htm.
3. O‘zbekistonda mahalla institutining mustaqillik yillaridagi rivojlanishi https://www.researchgate.net/publication/398277103.
4. Oilani mustahkamlashda mahallaning o‘rni https://yuz.uz/uz/news/oilani-mustahkamlashda-mahallaning-orni-.
5. Mahalla institutining transformatsiyasi va uni takomillashtirish yo‘llari // Innovations in Science and Technologies. – 2025. – № 2.
6. Mahalla institutining jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli: tajriba va rivojlanish istiqbollari // Science and Innovation International Scientific Journal. – 2024. – Vol. 1, Issue 5.
7. Mahallada ijtimoiy faollik, volontyorlik va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirish https://reandpub.uz/11953.
8. O‘zbekistonda ijtimoiy hayot va mahalla tizimida urf-odat va marosimlar // Modern Science http://modernscience.uz/en/post/detail/7847/.
9. Oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari: milliy va xorijiy tajriba: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: Mahalla va oila ilmiy-tadqiqot instituti, 2021. – 336 b.
10. Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari: respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: Mahalla va oila ilmiy-tadqiqot instituti, 2020.
11. Yoshlarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning ijtimoiy-huquqiy asoslari // Iqro ilmiy jurnali. – 2025.
12. Milliy oilaviy qadriyatlar va yoshlar siyosatini amalga oshirishning ma’naviy-axloqiy jihatlari: respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – 2025.
13. Oilaning yoshlarda ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishdagi o‘rni: nazariy-huquqiy tahlil // Support Science. – 2025.
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasida davlat yoshlar siyosatini 2022–2023-yillarda amalga oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori.
15. Ижтимоий фикр. Молодежь Узбекистана – 2026 (по результатам опросов общественного мнения) https://ijtimoiyfikr.uz/.
16. O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi Qonuni.

SAMARQAND UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC REPORTS

Texnik muharrir **Sh.Xoliqulov**

Muharrirlar:

I.Sulaymonov - fil.f.d., dotsent
E.Arziqulov - f.-m.f.d., dotsent
O.Yusupova - fil.f.n., dotsent

Mas'ul muharrir:

A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.d.

Muassis: Samarqand davlat universiteti Manzil: 140104,
Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 240-38-47, Faks: (0 366) 239-13-87 e-mail:
axborotnoma.uz
SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi. Bosishga 30.09.2026-yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00
Buyurtma raqami 867 Adadi 30 nusxa.

ISSN 2181-1296